

## O'QUVCHILARNI FAOLLASHTIRISH, MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH ORQALI BILIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI

**Nurillayeva Ziyodaxon Xalimjon qizi**

O'zDJTU 1-bosqich talabasi

Email: [nurillayevaziyodaxon@gmail.com](mailto:nurillayevaziyodaxon@gmail.com)

*Annotatsiya. Bugungi kunda maktablarda olib borilayotgan turli xil pedagogik usullar o'quvchilar uchun samarali bo'lib kelmoqda. Shu sababli, o'quvchilarni bilim olishga bo'lgan qiziqishlari ortib bormoqda. Ushbu maqola o'quvchilarni dars jarayonida yanada faollashtirish hamda mustaqil ishlarni tashkil etish orqali bilim samaradorligini oshirish yo'llari haqida to'xtalib o'tiladi.*

**Kirish so'zlar:** ta'limgan-tarbiya, mustaqil ta'limgan, bilim samaradorligi, baholash, ta'limgan jarayoni, rag'bat, mustaqil faoliyat.

Har bir o'quvchining ta'limgan-tarbiya jarayondagi faoliyati o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning fikrashi va mustaqil ishlari ta'limgan sohasida muhim o'rinni egallaydi. Shunday ekan ularning bilim salohiyatini, iqtidori jarayondagi harakatlarini bir mezonda baholash, bir mavqedan ko'rishda noo'rindir. O'quvchilarga berilayotgan mustaqil ishlari, avvalambor, o'qituvchi tomonidan puxta o'yangan, ta'limgan maqsadiga asoslangan bo'lishi kerak. Bunda har bir o'quvchining qiziqishi, yoshi va imkoniyati e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

Mustaqil faoliyat faollikni oshiradi. O'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish, albatta, yaxshi samara beradi. Mustaqil faoliyat insonni ziyrak, uddaburon va hozirjavoblikka yetaklaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida ushbu faoliyat rivojlanishi kerak. Buning uchun avvalambor, mustaqil faoliyatga o'quvchilarni ruhan tayyorlash, ularga biron ishni qilishga va shu ishni samarali bajarishga kuchli ishonch hosil qilinishi kerak.

O'quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish usullaridan biri berilgan topshiriqlarni to'laqonli bilan eslab qolib bajarishlaridir. Bunda asosan bajarilayotgan topshiriqlarni maqsadini tushungan holda, rejasini belgilash hamda ish usulini tanlashda yo'l qo'yilgan xatolarni mustaqil topa olish va uni qayta takrorlamaslikga alohida e'tibor beriladi. Topshiriqlarni tez va sifatli qilib bajarish uchun qulay metodlarni qo'llash, ularni tashkil etish uchun doimiy ravishda yetakchi savollar tayanch so'zlar tavsiya etish maqsadga muvofiqdir.

O‘quvchilarda mustaqil ishlarni bajarish davomida har bir o‘quvchida qiyinchiliklar yuzaga kelishi tabiiy holdir. Negaki, ularda hali beri tasavvur yorqin, so‘z boyligi yetarli emas.

Uyga vazifalar ham mustaqil ishning bir turi hisoblanadi, chunki uyga berilgan topshiriqlarni qilish davomida bola chuqur fikrlaydi, izlanadi va harakat qiladi. Bu esa uning mazmunli hayoti uchun juda katta ahamiyat kasb etadi. Bolalarga, iloji boricha dars davomida asosiy bilim va ko‘nikmalarga singdirish va uyga berilayotgan vazifalarni me’yorlash kerak. Bolalar darsdan keyin tiniqib dam olsalar, ko‘proq ochiq havoda harakatli o‘yinlar, sayr, kuzatishlar bilan kelsalar, darslarni yanada chuqur o‘zlashtirishi yaxshilanib boraveradi. Shuning uchun uy ishlarini me’yorlab, asosan, ularni atrof muhitni kuzatishga undashi lozim.


Ma’lumki, bola tarbiyani ilk bor oiladan oladi. Oiladagi ijtimoiy muhitlar bola tarbiyasiga sekin- astalik bilan ta’sir ko‘rsata boshlaydi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 64 muddasida belgilanishicha “Har bir ota-onalar farzandlarini voyaga yetguncha tarbiyalashga va boqishga majburdirlar”. Ushbu qoidaga asoslanib farzandini tarbiyalash, voyaga yetkazish ota-onaning burchi ekanligi uqtirilgan. Farzand dunyoga kelishi bilanoq, uni tarbiyalash, moddiy ta’minlash, o‘qitish va tarbiya berish ota-onalarning zimmasidagi mas’uliyatdir. Ana shunday mas’uliyatga befarqlik, bepisandlik munosabatda bo‘lish bolani keyingi hayoti uchun kechirilmas hollarga olib kelishi hammaga ayon. Bola voyaga etgach kundan kun o‘z ota-onalarining turmush tarziga qiziq boslaydilar ya’ni qayerda ishslashlari, jamiyatda tutgan o‘rnilariga va bilimlariga. Shu bilan bir qatorda, ota-onsa bilan boladagi hamkorlikning tarbiyaviy jihatdan to‘g‘ri bo‘lishini ta’minlash matabning muhim vazifalaridan biridir. Negaki, oiladagi tarbiyaning mazmuni tashkil etishda, avvalo, matab belgilaydi. Oilaviy tarbiya samaradorligini oshirish matabgina yuzasidan rahbarlik qila oladi.

Bola bajargan mustaqil ishidan mammun bo‘lsa, uning qiziqishlari kun sayin ortib boradi va yangi-yangi ish turlarini amalga oshirishga kirishadi. Mustaqil ishlarni hamisha tekshirish lozim. Tekshirish yozma yoki og‘zaki bo‘lishi mumkin. Bola yozishdan oldin o‘yaydi, fikr yuritadi, so‘ngra uni yozishga kirishadi. Bola savol yoki masala yuzasidan berilgan savollar ustida mushohada yuritish uchun bola juda jiddiy fikrlaydi bu esa uning o‘z fikrni yanada ravon qilib o‘sirishga va fikrlashni o‘sirishga yordam beradi. Bu jarayon (og‘zaki) nutq asosida paydo bo‘ladi va mustahkamlanadi. Masalan, o‘quvchi o‘z fikrni yozma ifodalashdan oldin o‘yaydi. Pichirlab allanimalar haqida fikr yuritadi ushbu holat pedagogikada faol faoliyat hisoblanadi. O‘quvchilar insho yozishdan oldin, avvalo, matnni o‘qib chiqadi, uni og‘zaki tahlil qiladi hamda

sarlavha o‘ylab topadi, so‘ngra qanday rasmlar kerakligi va u ustida qanday ishlash lozimligi haqida fikr yuritadi.

O‘quvchilarni mustaqil faoliyatga o‘rganishda quyidagilarga amal qilishi lozim:

- topshiriqlar o‘quvchini darajasiga qarab berilsin va o‘quvchi uchun tushunarli bo‘lsin;
- topshiriqni bajarishda bolada o‘ziga bo‘lgan ishonch hirsi uyg‘onsin, dadillikni sezsin;
- topshiriqlarni turini almashtirishga, navbatlashtirishga ahamiyat berish kerak;
- topshiriqlarni darsning turli bosqichida tayyorlashlari mumkin;
- ish joyi ishlash uchun qulay hamda hamma kerakli jihozlar bo‘lishi kerak;
- didaktik materiallar, darsliklar bilan uzviy bog‘lilikda ishlash maqsadga muvofiqdir;
- berilgan topshiriqni hamma bir vaqtida boshlab, bir vaqtida tugatishi lozim va buni o‘qituvchilar eslatib o‘tishlari kerak;
- mustaqil ishlar guruh bo‘lib yokida yakkama-yakka tarzda amalga oshirilsin;
- berilayotgan har bir topshiriq o‘quvchilarning imkoniyatlariga mos bo‘lsin va qiziqishlarini uyg‘ota olsin;



Demak, har bir berilayotgan mustaqil ishlar o‘quvchi uchun foydali bo‘lsin. Bola o‘z qobiliyatini ushbu ishlar orqali namoyon qila oladi. Shuningdek, undagi kreativlik, chaqqonlik, fikrlash qobiliyatlari kun sayin ortib boraveradi. Bolalarni ko‘proq mustaqil ishlar bilan jalb qilish juda ham samarali va foydali bo‘ladi chunki bola har bir berilayotgan topshiriq ustida ko‘p ishlaydi hamda fikrlaydi. Bolalarni bilim salohiyatini oshirish va ularni bilim olishga qiziqtirish uchun quyidagilarga amal qilish kerak bo‘ladi:

- ko‘rgazmali,didaktik, test, tarqatma materiallardan keng foydalanish;
- o‘quvchilarga do‘stona munosabatda bo‘lish, uni har qanday vaziyatda tushunish;
- o‘qish samaradorligi va sifatiga e’tibor berish;
- lug‘at ustida ishlashga o‘rgatish;
- xalq og‘zaki ijodidan foydalanish;
- darslarni yangi pedagogik, zamonaviy texnologiyalardan va noan’anaviy usul va metodlarni foydalanib o‘quv mashg‘ulotlarni olib borish;
- nutq o‘stirishga alohida e’tibor qaratish;
- dars mashg‘ulotlaridan keyin turli xil to‘garaklar tashkil etish;
- darsni o‘zlashtirishi qiyin bo‘lgan o‘quvchilar bilan alohida ish olib borish;
- dars jarayonida o‘quvchilar orasida turli xil musobaqalar, o‘yinlar bilan o‘tqazish;
- iste’dodli o‘quvchilarni rag‘batlantirish;
- bolajonlar orasida raqobatlarni kuchaytirish;
- darslarni o‘z vaqtida olib borish, o‘z vaqtida tanaffus berish, ma’lum vaqtda tugatish;
- o‘quvchilarni o‘z ustida ishlashga yo‘naltirish;

Boshlang‘ich sinf mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni o‘qishning bir necha turlari ya’ni, ongli, tez va ifodali o‘qishga o‘rgatilib boriladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarning mutaxassislik, ixtisoslik yokida umumkasbiy o‘quv fanlariga tayyorgarlik ko‘rishda hamda chuqr bilim va malakalarga ega bo‘lishda mustaqil ta’lim ko‘nikmalari asosiy ro‘l o‘ynaydi. O‘quvchilarda ijodiy tayyorgarlik ko‘rish jarayonida mustaqil ta’limni tashkil etish uzviy va uzlusiz amalga oshiriladi hamda ular elektron o‘quv adabiyotlar, qo‘llanmalar va ma’lumotlar banki bilan keng foydalana oladi. Mustaqil ta’limni tashkil etish orqali o‘quvchilarni, har tomonlama, yetuk, bilimli, izlanuvchan, mustaqil fikrlay oladigan avlodni shakllantiramiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boshlang‘ich ta’lim konsepsiysi. Boshlang‘ich ta’lim jurnali №6- 1998 yil.
2. Mavlyanova R. Raxmankulova N. “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va intergatsiya” o‘quv qo‘llanma. – T.:Voris-Nashriyot, 2013.
3. [hbps//mywordworld.ru](http://mywordworld.ru)
4. <https://youtu.be/hZiTfHaDA6A>